

## BO'LAJAK MENEJRLARNING FORSAYT KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Raximova Dilrabo Oktyabrovna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Biznes va  
innovatsion menejment" kafedrası assistenti

[raximova89dilrabo@gmail.com](mailto:raximova89dilrabo@gmail.com)

97 219 02 12

### Annotatsiya:

Menejment fanini o'qitishning forsayt kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlaridan foydalanib menejment fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlash va tadbiq etish innovatsion boshqaruvning g'oyatda murakkabligi bilan asoslanadi. Innovatsion jarayonlarning rivojlanish dinamikasini oldindan ko'ra bilish, tahlillar asosida to'g'ri strategiyani tanlash menejrlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

**Kalit so'zi:** Forsayt kompetentlik, rivojlantiruvchi ta'lim, tizimli yondashish, innovatsion menejment, innovatsion strategiya, innovatsion boshqaruv, innovatsion pedagogik texnologiya, modulli o'qitish texnologiyalari, kasbiy kompetentlik

Bo'lajak menejrlarda forsayt kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish mutaxassislik fanlarini, jumladan "Menejment" fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida forsaytdan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

"Menejment" fanining asosiy maqsadi – talabalarda innovatsion faoliyat tajribalari, yangiliklar, ihtirolarni va ishlab chiqarish jamoasini boshqarishning obyekti va subyektlari, rahbar mehnat jamoasining asosiy boshqaruvchisi ekanligi, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat jamoalarini boshqarishda xodimlarning o'z-o'zini boshqarishdagi munosabatlari, hozirgi davr innovatsiyalarini moddiy rag'batlantirish, mehnat jamoasida innovatsion muhitni boshqarish bo'yicha nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, bo'lajak menejrlar: yangi turdagi tashkilotlarda integratsiyalashish va har tomonlama rivojlanish jarayonlari, kompaniyaning har tomonlama rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqish, innovatsion menejmentda tizimli yondashish, yangiliklarning yashash davri konsepsiyasining mohiyati, innovatsion menejmentdagi konsepsiyalar va yondoshishlarning tavsifi, innovatsion rivojlanishning tashkiliy shakllari, korxonadagi innovatsion strategiyani tanlash va



shakllantirish, forsait asosida korxonaning uzoq muddatli istiqbolini bashoratlay olish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Boshqaruv fanlari, jumladan "Menejment" fanini o'qitish metodikasi quyidagi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan:

"Menejment" fanini o'qitishning mazmun mohiyati Y.K. Babanskiy, L.M.Bazavlutskaya, YE.V.Berejnova, V.Bedexanova ilmiy ishlarida ochib berilgan;

Tadqiq etilayotgan mavzuning nazariy va metodologik asoslari bo'yicha xorijiy olimlardan M.V.But, R.I.Zek, L.M.Andryuxina, T.V.Yakubovskaya ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

Menejment fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etilishi innovatsion ta'lim muhitini yaratadi. Bo'lajak menejerlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish darajasi birinchi navbatda mutaxassis fanlarini o'qitishda foydalanilayotgan pedagogik texnologiyalar orqali belgilanadi. Pedagogik texnologiyaga turli olimlar turlicha ta'rif berishgan bo'lsada, mazmun va mohiyat o'zgarmay qolgan.

Menejment fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlash va tadbiiq etish innovatsion boshqaruvning g'oyatda murakkabligi bilan asoslanadi. Innovatsion jarayonlarning rivojlanish dinamikasini oldindan ko'ra bilish, tahlillar asosida to'g'ri strategiyani tanlash menejerlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Innovatsion boshqaruv jarayonlarini kengayishi bo'lajak menejerlarni o'qitish metodikasini ham takomillashtirishni talab etadi. Menejerlar o'zlarining innovatsion siyosatda yangi vazifalarini bilishlari uchun shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishlari, ya'ni o'z-o'zini boshqarishni bilishlari zarur.

Menejerlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lajak menejerlarda uzoqni ko'ra bilish va bashoratlash, maqsadni to'g'ri aniqlay olish, vazifalarni shakllantirish hamda ularni hal etish yo'llarini aniqlash, faol boshqarishni rivojlantirish kabi konseptual bilimlar berishdan iborat bo'lishi lozim. Lekin, hozirgi kundagi o'qitish metodikasi menejerlarda ushbu dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan qobiliyatlarni shakllantirishni to'liq ta'minlamaydi.

E.M. Korotkova, A.P. Panfilovoy, Y.M. Trenenkova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlili menejerlarni o'qitishni takomillashtirish eng dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida 2019-2020 o'quv yilidan boshlab kredit tizimining joriy etilishi modulli texnologiya asosida o'qitishni tadbiiq etish hamda rivojlantirishga olib keldi. Modulli o'qitish texnologiyasidan har qanday tashkiliy



tizimda, jumladan onlayn yoki offlayn o‘qitish tizimlarida foydalanish mumkin. An’anaviy o‘qitish tizimi bilan modul texnologiyasini birgalikda qo‘llash samarali hisoblanadi.

Dunyo bo‘yicha tarqalgan COVID-2019 pandemiyasi tufayli karantin e‘lon qilinishi O‘zbekistonda ham oliy ta‘limda o‘quv jarayonini masofaviy o‘qitish shakliga o‘tkazishga sabab bo‘ldi va bu onlayn o‘qitish jarayonida foydalanilgan MOODLE va HEMIS platformalarida ham modulli o‘qitish texnologiyasidan keng foydalanildi.

Hozirgi kunda mutaxassislik fanlarini, jumladan “Menejment” fanini o‘qitishning an’anaviy (reproduktiv) va modulli o‘qitish texnologiyalari bilan bir qatorda rivojlantiruvchi ta‘lim, aqliy harakatni bosqichma-bosqich shakllantirish, jamoaviy o‘zaro ta‘sir, to‘liq o‘zlashtirish, turli darajali o‘qitish, adaptiv o‘qitish, dasturlashtirilgan o‘qitish, muammoli o‘qitish, ijodiy faoliyatni rivojlantirish, loyihalar uslubi kabi innovatsion pedagogik texnologiyalari mavjud, lekin ulardan O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak menejerlar tayyorlashda kam foydalanilmoqda.

Menejment fanini o‘qitishning forsait kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlari. Metodika grekcha “methodos” so‘zidan olingan bo‘lib, qandaydir maqsadli faoliyatni amalga oshirishning tayyor “retsepti”, “algoritmi”, “tartibi” yoki usul va yo‘llaridir. Metodika inson faoliyatining o‘qitish jarayonida pedagogika sohasida hamda boshqa sohalar va tarmoqlarda ham keng qo‘llaniladi. Metodika metod atamasidan farq qiladi, metod aniq vazifalarni bajarish usulidir. Masalan, tajriba ma‘lumotlariga matematik ishlov berish metod sifatida qaralsa, tadqiqotning aniq mezonlarni yoki xarakteristikalarini tanlash metodika sifatida tushuniladi.

Boshqaruv fanlari, jumladan “Menejment” fanini o‘qitish metodikasini boshqaruv fanlarini o‘qitishni qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi xususiy didaktika, menejmentni o‘qitish nazariyasi, tajriba va tadqiqotlar fani deb tushunish mumkin.

O‘qitish metodlari tasnifini yaratish muammosi zamonaviy pedagogik didaktikaning eng muhim bahsli masalalaridan biri hisoblanadi. Metod universal kategoriya hamda “ko‘p o‘lchovli ta‘lim” bo‘lganligi sababli juda ko‘p belgilar hamda mezonlarga ega, hamda aynan shular tasnif yaratish uchun asos hisoblanadi. O‘qitish metodikasi to‘g‘risidagi bilimlarning tabiiy differentsiatsiyasi va integratsiyasi uning tasnifini yaratishda turlicha yondoshuvlar borligini aks ettiradi va shu sababli hozirgi vaqtga qadar yagona hamda mukammal tasnif ishlab



chiqilmagan. Turli mualliflar o'qitish metodikasi tasnifini ishlab chiqishda turli asoslar va mezonlardan foydalanishgan.

Menejment fanini o'qitish metodikasi mazkur fanni o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadigan o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlari to'g'risidagi fandir. Menejment ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini (boshqaruv fanlarini) o'qitish metodikasini o'rganish va takomillashtirish zamonaviy pedagogik dunyoqarashni shakllanishiga, reflektiv-tanqidiy fikrlashga va o'qituvchining biznes ta'limida kasbiy kompetentligini shakllanishiga olib keladi.

Menejment fanini o'qitish metodikasining asosiy vazifalariga oliy ta'limda o'qitish usullari va metodlari to'g'risida tushunchalarni shakllantirish, talabalarni o'zlashtirish jarayonlarini tashkil etish, oliy ta'limda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni qo'llash, an'anaviy va masofaviy o'qitishning xususiyatlari, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish va baholash texnologiyasini rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat. Shuningdek, menejment fanini o'qitish metodikasi vazifalariga qo'yidagilar kiradi:

“Menejment” ta'lim yo'nalishida bakalavrlar tayyorlashda mutaxassislik (boshqaruv) fanlarining rolini aniqlash.

Fan bo'yicha o'quv va ishchi o'quv dasturlar, fanning elektron modulli o'quv-uslubiy va ilmiy-axborot majmuasini tayyorlash, takomillashtirish hamda amaliyotga tadbiiq etish.

Fanning modullari mazmunini hamda o'zlashtirish ketma-ketligini aniqlash.

Fanning boshqaruv sohasidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalarni o'qitishning tashkiliy shakllari metod va usullarini ishlab chiqish.

O'quv jarayonining didaktik ta'minotini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiiq etish.

Menejment fanini o'qitish metodikasi boshqaruv tushunchalari va unga oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish tizimi, o'qitish jarayonida tarbiyalash tizimi, o'qitish shakllari tizimi, o'qitishning material bazasi tizimi, ochiq axborot jamiyatida o'qitish tizimi, bo'lajak menejmlarni ko'p darajali ta'lim berish tizimlaridan iboratdir.

Boshqa mutaxassislik fanlari kabi menejment fanini o'qitishda ham ko'rgazmali, amaliy, og'zaki va yozma uslublar orqali mavzuni tushuntirish mumkin. Albatta ushbu metodlardan kompleks holda foydalanilganda eng yuqori samaraga erishiladi.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ushbu mental karta oldingi yaratilgan sxemalardan o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni hisobga



olinganligi bilan farq qiladi. Masalan, ko'rgazmali metodda teleeshittirishlar, slaydlar (shu jumladan, multimedia va animatsiyali slaydlar), kompyuter dasturlari, didaktik kompyuter o'yinlari, turli xil testlar kiritilgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil va ilmiy-ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirish maqsadida og'zaki uslubga bahs-munozaralar, yozma uslubga esa tezis (maqol maqolalar) yozish, iqtiboslik, annotatsiya va taqriz yozish kabilar kiritilgan. Albatta bu uslublar ko'proq mustaqil ta'limni tashkil etishda qo'llanilsa yaxshi samara beradi.

Ta'kidlash joizki, menejment fanini o'qitish metodikasi o'zining alohida o'qitish obyekti mavjudligi, menejerlar tayyorlashda boshqa fanlar orasida muhim o'rni borligi, fanni o'qitish nazariyasiga egaligi va uni rivojlantirishi, o'qitish metodikasining o'z qonuniyatlariga egaligi va ochiqligi, o'ziga xos tushunchalar, atamalar, asosiy aniqlanishlar tizimiga egaligi hamda muammolar bo'yicha tadqiqotlarning o'z metodlariga egaligi bilan xarakterlanadi hamda pedagogikada alohida fan, yo'nalish sifatida qaraladi.

"Menejment" fanini o'qitishni tashkil etishning turlari va shakllari. O'qitish jarayonini tashkil etishning turlari va shakllarini aniqlash muammoli va bahsli masala hisoblanadi. Ko'pchilik pedagog olimlar o'quv jarayonining shakllarini o'quv mazmunini ifodalash va amalga oshirish usullari, ya'ni uning asosini o'quv rejasini shakllantirish hamda o'quv komponentlarini (auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, talabalar bilimni nazorat qilish metodlari) aniqlash deb hisoblashadi. Boshqa mualliflar esa o'quv faoliyatni tashkil etish shakllariga faqat nazariy (ma'ruza, seminar, kurs ishi va loyihasi, bitiruv malakaviy ishi, maslahat soatlari, o'quv-tanishuv amaliyoti) komponentlarni kiritishadi. Nazariy komponent amaliy, kombinatsiyalashgan va nazorat komponentlari bilan to'ldiriladi. Bunda amaliy komponentlarga amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, kombinatsiyalashgan komponentlarga malakaviy ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlari kiradi, nazorat komponentiga esa joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar kiradi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda oliy ta'limda pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy shakli sifatida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni hisoblash mumkin. Shu sababli menejment fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishda ushbu jarayonga yetarli e'tibor beriladi.





**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Raximova D.O. “Menejment” fanini o‘qitishda forsayt texnologiyasidan foydalanish metodikasi. //Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar: Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2022. -№4. -B.154-158
2. Raximova D.O. “Menejment” fanidan zamonaviy ma’ruzalarni tashkil etish metodikasi. //Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2022. -№6. B.68-74. (13.00.00. -№30)
3. Андрюхина Л. М. Компетенции XXI века: методология форсайта и адорнации. URL: [http://ncrao.rsvpu.ru/sites/default/files/konf\\_files/andryuhina.pdf](http://ncrao.rsvpu.ru/sites/default/files/konf_files/andryuhina.pdf)
4. Бабанский Ю.К. Классификация методов обучения. URL: [https://studbooks.net/1756455/pedagogika/klassifikatsiya\\_metodov\\_obucheniya\\_babanskiy](https://studbooks.net/1756455/pedagogika/klassifikatsiya_metodov_obucheniya_babanskiy). Мурожаат этилган сана: 11.02.2022.
5. Бут М.В., Зек Р.И.. Форсайт-технология в педагогике: некоторые аспекты теории и практики применения. URL: <https://articlekz.com/article/20887>. Мурожаат санаси: 02.02.2022.
6. Базавлуцкая Л.М. Методика преподавания менеджмента: учебно-методическое пособие /Л.М. Базавлуцкая, Д.Н. Корнеев. – Челябинск. Изд-во ЗАО «Библиотека А. Миллера», 2019. – 99 с.
7. Бедерханова В. Проблемы воспитания и развития личности. Совместная проектировочная деятельность как средство развития детей и взрослых – СПб. 2002. – 23 с.
8. Бережнова, Е.В. Методологические условия перехода от науки к практике в структуре прикладного педагогического исследования: дис... д -ра пед.наук: 13.00.08 /Е.В.Бережнова. Волгоград, 2003. 321с
9. Википедия, свободная энциклопедия. Методика. [Электрон манба]. URL: <https://ru.wikipedia.org> . Мурожаат этилган сана. 09.02.2022.
10. Вишневский К.О. Форсайт как инструмент государственной инновационной политики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Московский государственный университет имени М.В.Ломоносова. 2017.

